

**“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJ Komplaens xizmati
tomonidan 2022-yil davomida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni
aniqlash va baholash yo‘nalishida amalga oshirilgan
ishlar to‘g‘risida**
H I S O B O T

2022-yil **noyabr-dekabr** oylarida “NKMK” AJda korrupsiyaga qarshi kurashish oyligi o‘tkazildi. Ushbu oyda, Adliya vazirligi tomonidan 2022-yil 31-avgustda 3383-son bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan (*korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash bo‘yicha*) Uslubiyot hamda Jamiyatning tegishli ichki idoraviy hujjatiga asosan Jamiyat markaziy apparatining 54 ta boshqarma va bo‘limlarning **536 ta** funksiyalari baholandi. Baholash natijalariga ko‘ra, 19 ta “yuqori” va 58 ta “o‘rta” darajadagi xavf-xatarlar aniqlanib, ularni oldini olish va bartaraf etish yuzasidan 2022-yil 27-dekabrdan 62 ta banddan iborat Dastur (*chora-tadbirlar rejasi*) tasdiqlandi va ijroga qaratildi.